

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MEDIA MAYDONIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

To'rayev Kamoliddin Samadovich

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, bo'lim boshlig'i (PhD).

e-mail: turayevkamol@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-3037-8401>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada media maydonida axloqiy qadriyatlarining shakllanish jarayoni, uning tarixiy-mantiqiy rivojlanish bosqichlari hamda raqamli kommunikatsiya sharoitida yuzaga kelayotgan transformatsion xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan tortib algoritmik mediagacha bo'lgan davrda axloqiy qadriyatlarining o'zgarish mexanizmlarini aniqlash va ularning bosqichli modelini ishlab chiqishdan iborat. Tahlil natijasida media maydonida axloqiy qadriyatlar shakllanishining besh bosqichli modeli ishlab chiqildi hamda har bir bosqichda nazorat mexanizmlarining sifat jihatidan o'zgarishi asoslandi. Shuningdek, raqamli media muhitida shaxsning axloqiy immunitetini shakllantiruvchi omillar tizimlashtirildi. Natijalar yoshlarda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: media maydoni, axloqiy qadriyatlar, raqamli kommunikatsiya, mediamadaniyat, axborot etikasi, jamoatchilik ongi, virtual muhit, ma'naviy transformatsiya.

ФОРМИРОВАНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ НАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В МЕДИАПРОСТРАНСТВЕ

Тураев Камолиддин Самадович

Институт социально-духовных исследований, начальник отдела (PhD).

Аннотация.

В данной статье представлен научный анализ процесса формирования нравственных ценностей в медиaproстранстве, исследуются исторические этапы их развития и трансформационные особенности в условиях цифровой коммуникации. Цель исследования заключается в выявлении механизмов трансляции и изменения нравственных ценностей от традиционных средств массовой информации до алгоритмических медиа, управляемых искусственным интеллектом, а также в разработке их стадийной модели. В результате исследования была разработана пятиэтапная модель формирования нравственных ценностей в медиасфере и обоснована качественная трансформация механизмов морального контроля на каждом этапе. Кроме того, систематизированы ключевые факторы, формирующие нравственный иммунитет личности в цифровой медиасреде. Полученные результаты могут быть использованы при разработке практических рекомендаций по повышению медиаграмотности и обеспечению духовной стабильности молодежи.

Ключевые слова: медиaproстранство, нравственные ценности, цифровая коммуникация, медиакультура, информационная этика, общественное сознание, виртуальная среда, духовная трансформация.

SY FORMATION AND DEVELOPMENT STAGES OF MORAL VALUES IN THE MEDIA FIELD

To'rayev Kamoliddin Samadovich

Institute of Social and Spiritual Research, Head of Department (PhD).

Abstract.

This article provides a scientific analysis of the formation of moral values in the media field, examining their historical stages of development and transformational features under digital communication. The purpose of the study is to identify the mechanisms of transmission and change of moral values from traditional mass media to algorithmic, AI-driven media, and to develop a stage-based model. As a result, a five-stage model of the formation of moral values in the media field was developed, and the

qualitative transformation of moral control mechanisms at each stage was substantiated. In addition, the key factors shaping an individual's moral immunity in the digital media environment were systematized. The findings can be applied in developing practical recommendations for enhancing media literacy and ensuring the spiritual stability of youth.

Keywords: media field, moral values, digital communication, media culture, information ethics, public consciousness, virtual environment, spiritual transformation.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida media maydoni inson ongi, dunyoqarashi va axloqiy pozitsiyasini shakllantiruvchi eng ta'sirchan ijtimoiy institutlardan biriga aylandi. Agar ilgari axloqiy qadriyatlar oila, mahalla, ta'lim muassasalari va diniy-ma'rifiy an'analar orqali avloddan avlodga uzatilgan bo'lsa, hozirgi davrda bu vazifaning katta qismini ommaviy axborot vositalari, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar o'z zimmasiga olmoqda. Media muhitining tobora murakkablashib borishi, axborot oqimining cheklanmagan tezlikda tarqalishi va sun'iy intellektga asoslangan tavsiya tizimlarining joriy etilishi axloqiy qadriyatlarning shakllanish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda [2].

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, raqamli transformatsiya sharoitida yosh avlodning axloqiy tarbiyasi va ma'naviy immunitetini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligi bilan belgilanadi [1]. Ikkinchidan, media maydonida axloqiy me'yorlarning qanday uzatilishi, qaysi bosqichlarda qanday transformatsiyaga uchrashi borasida yaxlit nazariy modelning yetishmasligi mavjud ilmiy bo'shliqni tashkil etadi. Uchinchidan, an'anaviy ommaviy axborot vositalari, internet jurnalistikasi, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmik media o'rtasidagi farqlarni axloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilish amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tahlil mediasavodxonlik dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, milliy qadriyatlarga asoslangan mediakontent siyosatini takomillashtirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – media maydonida axloqiy qadriyatlarning shakllanish jarayonini tarixiy-mantiqiy nuqtai nazardan o'rganish, uning rivojlanish bosqichlarini aniqlash va raqamli muhitda yuzaga kelayotgan transformatsion xususiyatlarni ochib berish orqali bosqichli nazariy model ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: media va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning nazariy asoslarini tahlil qilish; media taraqqiyotining tarixiy bosqichlarini axloqiy transformatsiya nuqtai nazaridan tavsiflash; har bir bosqichda axloqiy nazorat va immunitet mexanizmlarining o'zgarishini aniqlash; raqamli media muhitida shaxsning axloqiy barqarorligini ta'minlovchi omillarni tizimlashtirish.

Adabiyotlar tahlili. Media va axloqiy qadriyatlar munosabati muammosi keng ilmiy adabiyotlarda turli jihatlaridan yoritilgan. Kommunikatsiya nazariyasi sohasida M. Maklyuenning "media – bu xabarning o'zi" degan konsepsiyasi media vositasi shaklining o'zi jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan [3] va bu yondashuv keyingi tadqiqotlarda axloqiy qadriyatlar transformatsiyasini o'rganish uchun metodologik asos vazifasini o'tagan. M. Kastels tarmoq jamiyati nazariyasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ijtimoiy tuzilmalar va jamoatchilik ongiga ta'sirini tizimli ravishda tahlil qilgan [4], bu esa media maydonining institutsional o'zgarishini tushunishga xizmat qiladi.

Media etikasi yo'nalishida xorijlik va mahalliy tadqiqotchilar axborot maydonining axloqiy me'yorlari, jurnalistik mas'uliyat va auditoriyaning axloqiy immuniteti masalalarini yoritganlar [5]. Xususan, axborot jamiyati nazariyasi doirasida Y. van Deykning tarmoq jamiyati konsepsiyasi axborot oqimining demokratlashuvi bilan birga axloqiy nazorat institutlarining zaiflashishi xavfini ko'rsatib bergan [6]. Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida milliy ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi va axborot xavfsizligi masalalari keng yoritilgan bo'lib, ularda raqamli muhitning yosh avlod dunyoqarashiga ta'siri, axborot xurujlaridan himoyalaniş mexanizmlari hamda milliy qadriyatlarni saqlab qolish zaruriyati asoslangan [7, 8, 9].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, media taraqqiyotining turli bosqichlarida axloqiy qadriyatlarning shakllanish mexanizmlari alohida-alohida o'rganilgan, ammo ularni yaxlit, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi tizim sifatida taqdim etuvchi kompleks nazariy model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Aynan mana shu metodologik bo'shliq mazkur tadqiqotning ilmiy yo'nalishini belgilaydi va uning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlil va tizimli yondashuv metodlari tashkil etadi. Tarixiy-mantiqiy tahlil metodi media taraqqiyotining xronologik bosqichlarini aniqlash va ularning ichki mantiqiy bog'liqligini ochib berishga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil metodi orqali an'anaviy ommaviy axborot vositalari, internet jurnalistikasi, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellektga asoslangan medianing axloqiy qadriyatlarga ta'sir mexanizmlari o'zaro solishtirildi. Kontent tahlil metodi zamonaviy mediaplatformalardagi axborot xususiyatlarini sifat jihatidan baholashda qo'llanildi. Tizimli yondashuv esa media maydonini yaxlit ijtimoiy tizim sifatida ko'rib chiqish va uning axloqiy qadriyatlar shakllanishidagi funksional rolini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda, shuningdek, nazariy umumlashtirish va modellashtirish usullaridan foydalanilib, media maydonida axloqiy qadriyatlar shakllanishining besh bosqichli modeli ishlab chiqildi.

Natijalar va ularning tahlili (muhojama). "Axloqiy qadriyat" tushunchasi jamiyat tomonidan e'tirof etilgan, shaxs xulq-atvorini boshqaruvchi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ma'naviy me'yorlar majmuini anglatadi [10]. "Mediamadaniyat" esa jamiyatning axborot vositalari bilan o'zaro munosabatida shakllanadigan bilim, ko'nikma va qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. "Axborot etikasi" tushunchasi axborotni yaratish, tarqatish va iste'mol qilish jarayonidagi axloqiy me'yorlarni ifodalaydi [11]. Ushbu uchta tushuncha o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, media

maydonida axloqiy qadriyatlarining shakllanishi uchun nazariy poydevorni tashkil etadi.

Media maydoni shunchaki axborot uzatish kanali emas, balki jamoatchilik ongini shakllantiruvchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va qadriyatlar tizimini transformatsiya qiluvchi murakkab ijtimoiy institut hisoblanadi [12]. Shu bois media maydonida axloqiy qadriyatlarining shakllanishi bir tomonlama jarayon emas. Unda media axloqiy me'yorlarni nafaqat targ'ib qiladi, balki ularni qayta ishlaydi, talqin qiladi, ayrim hollarda esa deformatsiyaga uchratadi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tarixiy-mantiqiy va qiyosiy tahlil asosida media maydonida axloqiy qadriyatlarining shakllanishining besh bosqichli modeli ishlab chiqildi. Mazkur model media taraqqiyotining texnologik va institutsional o'zgarishlarini axloqiy nazorat mexanizmlarining transformatsiyasi bilan bog'liq holda tavsiflaydi.

1-jadval. Media maydonida axloqiy qadriyatlar rivojlanishining bosqichli modeli

Bosqich	Nomi	Asosiy xususiyati	Axloqiy nazorat mexanizmi
I	An'anaviy axborot bosqichi	Matbuot, radio, televideniye orqali qadriyatlarining markazlashgan tarzda uzatilishi	Davlat va redaksiya nazorati, yagona axloqiy standart
II	Ommaviy kommunikatsiya bosqichi	Milliy g'oya, jamoatchilik fikri va ijtimoiy nazoratning kuchayishi	Institutsional-jamoatchilik nazorati
III	Internetlashuv bosqichi	Axborot oqimining tezlashuvi, manbalar ko'pligi, axloqiy filtr muammosi	Nazorat zaiflashuvi, foydalanuvchi mas'uliyati ortishi
IV	Ijtimoiy tarmoqlar bosqichi	Shaxsiy blogerlik, influenserlar, virtual ta'sir kuchayishi	Norasmiy, guruhli va algoritmik o'zini-o'zi nazorat
V	Sun'iy intellekt va algoritmik media bosqichi	Tavsiya tizimlari, avtomatlashtirilgan kontent, texnologik tanlov	Algoritmik shaffoflik va raqamli mediasavodxonlikka bog'liq nazorat

Birinch, an'anaviy axborot bosqichida axloqiy qadriyatlar matbuot, radio va televideniye kanallari orqali markazlashgan tarzda, ko'pincha davlat yoki muassasaviy nazorat ostida uzatilgan [13]. Bu bosqichda axborot bir tomonlama yo'nalishga ega bo'lib, auditoriya asosan passiv iste'molchi rolini o'ynagan, bu esa axloqiy me'yorlarning nisbatan barqaror va bir xilligi saqlanishini ta'minlagan.

Ikkinchi, ommaviy kommunikatsiya bosqichida milliy g'oya va mafkuraviy tarbiya vositalari kuchayib, jamoatchilik fikri axloqiy nazoratning muhim omiliga aylandi [14]. Bu davrda media nafaqat axborot uzatuvchi, balki ijtimoiy tarbiya vositasi sifatida ham faol funksiyani bajargan.

Uchinchi, internetlashuv bosqichi axborot manbalarining keskin ko'payishi va axborot oqimining chegarasiz tezlashuvi bilan tavsiflanadi [15]. Aynan shu bosqichda axloqiy "filtr" muammosi birinchi marta keskin tarzda namoyon bo'ldi: an'anaviy nazorat institutlari axborotning hajmi va tezligiga nisbatan ojizlik ko'rsata boshladi, natijada axloqiy mas'uliyatning bir qismi foydalanuvchiga o'tdi.

To'rtinchi, ijtimoiy tarmoqlar bosqichida shaxsiy blogerlik va influenserlik instituti shakllanib, axloqiy qadriyatlarining uzatilishi institutsional subyektlardan individual subyektlarga o'tdi [16]. Bu bosqichda virtual ta'sir kuchayib, axloqiy me'yorlar ko'pincha norasmiy, stixiyali tarzda, guruhli o'zini o'zi nazorat mexanizmlari orqali shakllanmoqda.

Beshinchi, sun'iy intellekt va algoritmik media bosqichi hozirgi davr uchun eng xarakterli bosqich bo'lib, unda kontent tavsiya tizimlari va algoritmlar foydalanuvchining axborot maydonini, demak, uning axloqiy tasavvurlarini ham bevosita shakllantirmoqda [17]. Bu bosqichda axloqiy nazorat texnologik shaffoflikka, algoritmlarning axloqiy jihatdan moslashtirilganligiga va shaxsning raqamli mediasavodxonlik darajasiga bog'liq bo'lib bormoqda [18].

Tadqiqot natijasida raqamli media muhitida shaxsning axloqiy immunitetini, ya'ni zararli axborot ta'siriga qarshilik ko'rsatish va milliy-ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish qobiliyatini shakllantiruvchi bir qator omillar tizimlashtirildi [19]. Bular quyidagilardir: birinchidan, oilaviy tarbiya va an'anaviy qadriyatlar negizidagi dastlabki axloqiy tizimning mustahkamligi; ikkinchidan, rasmiy ta'lim tizimi orqali berilayotgan mediasavodxonlik ko'nikmalari [20]; uchinchidan, shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyati, ya'ni axborotni ajrata olish va baholash ko'nikmasi; to'rtinchidan, milliy qadriyatlarga asoslangan sifatli mediakontentning mavjudligi va uning raqobatbardoshligi [21]; beshinchidan, davlat darajasida axborot xavfsizligini ta'minlovchi normativ-huquqiy mexanizmlarning samaradorligi [22].

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, media maydonida axloqiy qadriyatlar statik hodisa emas, balki doimiy transformatsiyada bo'lgan dinamik jarayondir. Har bir yangi texnologik bosqich axloqiy nazorat mexanizmlarining sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi: markazlashgan institutsional nazoratdan individual va algoritmik nazoratga o'tish kuzatilmoqda [23]. Bu holat, bir tomondan, axborot erkinligi va plyuralizmning ortishiga xizmat qilsa, ikkinchi

tomondan, axloqiy me'yorlarning parchalanishi, relyativlashuvi va ayrim hollarda deformatsiyaga uchrashi xavfini kuchaytiradi [24].

Sun'iy intellekt bosqichida axloqiy qadriyatlarning shakllanishi endi faqat inson omiliga emas, balki algoritmik tizimlarning axloqiy jihatdan qanday loyihalashtirilganligiga ham bog'liq bo'lib qolmoqda [25]. Bu esa media etikasi nazariyasiga "algoritmik axloq" tushunchasini kiritish zaruratini ko'rsatadi. Amaliy jihatdan esa natijalar shuni tasdiqlaydiki, yoshlarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, milliy qadriyatlarga asoslangan raqobatbardosh mediakontent yaratish davlat axborot siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim [26].

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

– Media maydonida axloqiy qadriyatlarning shakllanishi tarixiy jihatdan besh asosiy bosqichni – an'anaviy axborot, ommaviy kommunikatsiya, internetlashuv, ijtimoiy tarmoqlar hamda sun'iy intellekt va algoritmik media bosqichlarini bosib o'tgan.

– Har bir bosqichda axloqiy nazorat subyekti institutsionaldan individual va algoritmikka tomon siljib borgan.

– Raqamli media muhitida shaxsning axloqiy immuniteti murakkab, ko'p omilli tizim bo'lib, u oilaviy tarbiya, ta'lim, tanqidiy fikrlash, sifatli milliy mediakontent va normativ-huquqiy bazaning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

– Ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga mediasavodxonlik bo'yicha maxsus seminarlarni joriy etish.

– Milliy qadriyatlarga asoslangan sifatli va raqobatbardosh mediakontent yaratishni rag'batlantiruvchi davlat dasturlarini takomillashtirish.

– Ijtimoiy tarmoqlar va algoritmik platformalarda axloqiy me'yorlarga rioya etilishini ta'minlovchi ichki monitoring mexanizmlarini joriy etish.

– Yoshlar o'rtasida tanqidiy fikrlash va axborotga nisbatan axloqiy-estetik baho berish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ma'rifiy tadbirlarni kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgustdagi "Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5148-son Farmoni.
2. Zuboff S. *The Age of Surveillance Capitalism*. – New York: PublicAffairs, 2019.
3. McLuhan M. *Understanding Media: The Extensions of Man*. – New York: McGraw-Hill, 1964.
4. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell Publishing, 1996.
5. Christians C. G., Fackler M., Richardson K. B. *Media Ethics: Cases and Moral Reasoning*. – New York: Routledge, 2020.
6. Van Dijk J. *The Network Society*. – London: SAGE Publications, 2012.
7. Lochinbek Tursunali o'g'li A. Milliy ma'naviyat va axborot xavfsizligi muammolari // *Advances in Science and Humanities*. – 2026. – Vol. 2. – No. 5. – P. 20–22.
8. Yo'ldoshev Sh. *Media madaniyati va yoshlar tarbiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston. – 128 b.
9. Toshmatov B. *Axborot jamiyati va milliy qadriyatlar transformatsiyasi*. – Toshkent: Fan. – 39 b.
10. Rest J. R., Narvaez D. *Moral Development in the Professions: Psychology and Applied Ethics*. – New York: Psychology Press, 1994.
11. Floridi L. *The Ethics of Information*. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
12. Couldry N., Hepp A. *The Mediated Construction of Reality*. – Cambridge: Polity Press, 2017.
13. Bauman Z. *Liquid Modernity*. – Cambridge: Polity Press, 2000.
14. Habermas J. *The Structural Transformation of the Public Sphere*. – Cambridge: MIT Press, 1991.
15. Van Dijk J. *The Network Society*. – London: SAGE Publications, 2012.
16. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell Publishing, 1996.
17. Zuboff S. *The Age of Surveillance Capitalism*. – New York: PublicAffairs, 2019.
18. Floridi L. *The Ethics of Information*. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
19. Livingstone S. Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies // *The Communication Review*. – 2004.
20. Livingstone S. Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies // *The Communication Review*. – 2004.
21. Rasulov A. Axloqiy qadriyatlar tipologiyasi va media subyektlari // *Jamiyat va boshqaruv*. – 2021. – № 4. – B. 34.
22. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-son Qonuni.
23. Couldry N., Hepp A. *The Mediated Construction of Reality*. – Cambridge: Polity Press, 2017.
24. Postman N. *Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business*. – New York: Penguin Books, 1985.
25. Zuboff S. *The Age of Surveillance Capitalism*. – New York: PublicAffairs, 2019.
26. Christians C. G., Fackler M., Richardson K. B. *Media Ethics: Cases and Moral Reasoning*. – New York: Routledge, 2020.